Mobil gibrid Quyosh-yoqilg’i elektr stantsiyasi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Quyosh energiyasi xalqaro instituti olimlari tomonidan Mobil gibrid Quyosh-yoqilg’i elektr stantsiyasi yaratildi.

Mobil gibrid Quyosh-yoqilg’i elektr stantsiyasi olis aholi punktlari va fermer xo’jaliklarida avtonom elektr energiyasi va suv ta’minoti, chorva mollarini sug’orish va tomchilab sug’orish tizimlarida ishlatilishi mumkin. Qurilma yengil avtomashinaga tirkama orqali ulab harakatlantiriladi. U Quyosh energiyasi va benzin yoqilg’isi bilan ishlaydi, elektr uzatish liniyalari tortishga ehtiyoj bo’lmaydi.

Mobil gibrid Quyosh-yoqilg’i elektr stantsiyasi ish jarayonida mobil ilova va internetga ulangan Sim karta orqali masofadan turib boshqariladi.